



**SIRDARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**



**SIRDARYO VILOYATINING SANOAT
ISHLAB CHIQRISHI**


2022- YIL YANVAR-OKTABR




Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2022- yil yanvar-oktabr oylarida)

2022- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 9575,7 mln. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, 2021- yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 110,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga toʻgʻri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 57,9 % ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da



*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi oʻzgarishini tavsiflovchi nisbiy koʻrsatkichdir.


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 11,0 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 12,5 % ga o'sishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 63,1 mln. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda



Ishlab chiqaradigan sanoat



2022- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5548,9 mln. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 57,9 % ni tashkil etdi.


2021- yil yanvar-oktabr

51,5 %

2022- yil yanvar-oktabr

57,9 %


O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 4,8 % ni (2021- yilning yanvar-oktabr oylarida – 3,7 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 3,6 % (4,2 %), o'rta-quyi texnologiyali – 16,8 % (18,3 %) va quyi texnologiyali – 74,8 % (73,8 %) ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 4,8 % (2021- yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 137,0 %), boshqa nometall mineral mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 9,8 % (2021- yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 108,1 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 39,2 % (2021- yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 69,2 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 30,2 % (2021- yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 70,4%), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 2,7 % (2021- yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 59,7 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati
O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da *


Yirik shoxli qoramollar uchun ozuqa




Kepak




Tarkibida alkaloidlar bo‘lgan yoki bo‘lmagan, lekin gormonlar yoki antibiotiklar bo‘lmagan medikamentlar




O‘simlik yog‘i (tozalangan)



Yumshoq bug‘doy va spelta uni




Sellyuloza




* yanvar-oktabr yirik korxonalar bo‘yicha


Aroq




Paxta, bint va shu kabi mahsulotlar




Boshqa plastmassalardan qoplar va sumkalar




Paxta tolasi



Paxta chigiti



Kalava ip



2022- yilning yanvar-oktabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 15,4 ming tonna boshqa plastmassalardan qoplar va sumkalar (2021-yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan 13,6 % ga oshgan), 1,0 ming tonna paxta, bint va shu kabi mahsulotlar (26,6 % ga oshgan) hamda 53,8 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (18,8 % ga oshib) ishlab chiqarishda, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.


Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-oktabr	2022- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Yirik shoxli qoramollar uchun ozuqa, tonna	18923	16603	-2320
Paxta, bint va shu kabi mahsulotlar, tonna	822,9	1041,5	218,6
Boshqa plastmassalardan qoplar va sumkalar, ming t.	13,6	15,4	1,8
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	45,3	53,8	8,5
Paxta tolasi, ming t.	16,8	20,7	3,9
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	4,8	2,7	-2,2


yanvar-oktabr yirik korxonalar bo'yicha

Metallurgiya sanoati

2021- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida metallurgiya sanoati ulushi 0,6 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 53,2 % ga kamaygan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,4 % ni tashkil etib, fizik hajm indeksi esa, 81,9 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 23,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



2021- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 11,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 172,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 9,8 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 8,1 % ga o'sgan va ishlab chiqarish hajmi 541,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2021- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 29,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 113,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 29,5 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 21,5 % ga o'sgan va ishlab chiqarish hajmi 1638,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2021- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 79,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 70,1 % ni va ishlab chiqarish hajmi 38,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




2021- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 26,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 155,5 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 30,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 10,2 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1705,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kiyim ishlab chiqarish sanoati


2021- yil yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 6,8 % ni, fizik hajm indeksi esa 172,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,7 %, fizik hajm indeksi 104,0 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 262,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yil yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 138,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,9 % ni, fizik hajm indeksi 122,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 47,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish




2021- yil yakunlariga ko'ra, asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 58,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,8 % ni, fizik hajm indeksi 137,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 265,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish


2021- yil yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 122,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,9 % ni, fizik hajm indeksi 52,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 103,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3910,5 mln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 40,8 %) ni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 12,5 % ga oshganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-oktabr	2022- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	12688,5	13520,4	831,9
Issiqlik energiyasi, ming gkal	126,6	176,2	49,6

yanvar-oktabr yirik korxonalar bo'yicha

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 53,3 mln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 %) ni tashkil etdi.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021-yil yanvar-oktabr	2022-yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, <i>mlrd.so'm</i>	38,0	39,7	1,7
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar, <i>mlrd.so'm</i>	15,9	13,5	-2,4

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar 3,4 % ga o'sgan hamda chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 40,4 % ga pasayishi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 4186,8 mln. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 124,4 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 43,7 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2021- yil
yanvar-oktabr

37,1%

2022- yil
yanvar-oktabr

35,9%

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021- yil
yanvar-oktabr

62,9%

2022- yil
yanvar-oktabr


64,1%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 1,2 % (2021- yil yanvar-oktabr oylarida 58,2 %) ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumaniga to'g'ri kelib 38,2 % , Guliston shari 17,4 %, Yangiyer shahri 10,1 % hamda Mirzaobod tumani 8,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (124,4 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Mirzaobod (163,0 %), Boyovut (141,2 %), Guliston (137,8 %) tumanlari hamda Yangiyer shahrida (152,3 %) qayd etildi.



Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumaniga to'g'ri kelib, 38,2 %, shuningdek, Guliston shahri 17,4 % ni, Yangiyer shahri 10,1 % ni, Mirzaobod tumani 8,5 % ni tashkil etdi.





Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumaniga to'g'ri kelib, 49,9 %, shuningdek, Guliston shahri 12,1 % ni, Guliston tumani 10,1 % ni, Mirzaobod tumani 9,3 % ni tashkil etdi.






Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq- ovqat mahsulotlarning ulushi



Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Guliston shahriga to'g'ri kelib, 27,0 % ni, shuningdek, Sirdaryo tumani 17,2 % ni, Sayxunobod tumani esa 12,5 % ni tashkil etdi.






o'sish sur'ati
mlrd. so'm

Sirdaryo viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Shirin shahriga to'g'ri kelib, 38,9 % ni, shuningdek, Sirdaryo tumani 21,5 % ni, Guliston shahri esa 9,3 % ni va Yangiyer shahri 7,0 % ni tashkil etdi.


Sirdaryo viloyati





FHI, % da
mlrd. so'm

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Shirin shahri (194589,0 ming so'm), Sirdaryo tumani (15448,5 ming so'm) hamda Yangiyer shahrida (14535,2 ming so'm) o'rtacha Viloyat darajasi ko'rsatkichidan (10815,5 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.




Sirdaryo viloyati



o'sish sur'ati
ming so'm

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi



Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3117,7 mln. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 32,6 % ni tashkil etdi.



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 4728,8 ming so'm bo'lgani holda, Sirdaryo tumanida– 12007,4 ming so'mni, Yangiyer shahrida – 9191,5 ming so'mni, Guliston shahrida– 7609,5 ming so'mni va Mirzaobod tumanida – 4583,2 ming so'mni tashkil etdi.

Sirdaryo viloyati



o'sish sur'ati
ming. so'm

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatimizda 2267 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 555 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 24,5 %) Guliston shahriga, 366 tasi (16,1 %) Sirdaryo tumaniga, 194 tasi (8,6 %) Yangiyer shahriga, 194 tasi (8,6 %) Boyovut tumaniga va 192 tasi (8,5 %) Mirzaobod tumaniga to'g'ri kelmoqda.

